

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida tahsil olayotgan talaba-yoshlar o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligiga bag‘ishlab notiqlik san’ati bo‘yicha “Men nechun sevaman, O‘zbekistonni” mavzusida o‘tkaziladigan onlayn videoroliklar tanlovi

NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusni koronavirus pandemiyasi karantini davrida ijrosini ta‘minlash, talaba-yoshlarda notiqlik san’ati bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash hamda ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligiga bag‘ishlab **“Men nechun sevaman, O‘zbekistonni”** shiori ostida onlayn videoroliklar tanlovi tashkil etiladi.

1.2. **“Men nechun sevaman, O‘zbekistonni”** mavzusidagi onlayn videoroliklar tanloviga universitetda tahsil olayotgan talabalar va magistrantlar o‘zlarining ijodiy ishlari bilan ishtirok etadi.

1.3. Tanlovning fakultet bosqichini tashkil etish va o‘tkazish jarayoni fakultetlarning yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosarlari tomonidan amalga oshiriladi.

II. Tanlovning maqsadi va vazifalari

2.1. Tanlovning asosiy maqsadi – talaba-yoshlar qalbida vatanparvarlik, yurt kelajagi va mamlakat taraqqiyoti yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda erishilayotgan ulkan zafarlarga daxldorlik xislatlarini shakllantirish, ularning notiqlik san’ati bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, o‘z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste‘dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

2.2. Tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

- talaba-yoshlarni dunyoviylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarning ta‘sirchanligini oshirish;

- talaba-yoshlarda notiqlik san’ati bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish;

- yoshlarimizni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, o‘z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste‘dodli yoshlarni har tomonlama rivojlantirish;

- yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalash.

III. Tanlovni o'tkazish bosqichi va muddatlari

3.1. **“Men nechun sevaman, O‘zbekistonni”** mavzusidagi tanlov ikki bosqichda o'tkaziladi.

Birinchi bosqich – universitetning fakultetlari akadem guruhlarini o'rtasida joriy yil 19 iyundan 20 avgustga qadar onlayn tarzda o'tkaziladi.

Ikkinchi bosqich – universitet miqyosida fakultetlararo birinchi bosqich g'oliblari o'rtasida avgust oyining uchinchi o'n kunligida onlayn tarzda o'tkaziladi.

IV. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish

4.1. Tanlovni birinchi va ikkinchi bosqichini o'tkazish bo'yicha universitet rektori buyrug'i bilan ishchi guruh va soha professor-o'qituvchilari, olimlari, mutaxassislari, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat tarkibda hakamlar Hay'ati tuziladi.

4.2. Talaba-yoshlar tomonidan yo'nalishlar bo'yicha tayyorlangan ijodiy ishlar fakultetlar kesimida tuzilgan hakamlar Hay'ati tomonidan tanlov shartlari va mezonlari asosida baholanadi.

V. Tanlov shartlari va mezonlari

5.1. Tanlovga taqdim etiladigan video materiallar universitetda tahsil olayotgan talaba-yoshlar va magistrantlar tomonidan ona Vatanga muhabbat hamda sadoqat, vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari aks etgan va 3 daqiqadan oshmagan videoroliklar shaklida bo'lishi lozim.

5.2. Tanlovga taqdim etiladigan videoroliklar quyidagi mezonlarda baholanadi:

mavzuning mazmun-mohiyati notiqlik san'ati me'yorlari asosida ochib berilganligi;

tanlangan mavzuning bugungi kun muammolari bilan bog'langanligi;

mavzuning mazmuni to'laqonli ochib berilganligi;

ijodiy yondashuvning mavjudligi hamda nutqning ta'sirchanligi;

videorolikda o'zbek tili boy imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini ochib berilganligi;

mustaqil fikrlarni aniq bildirilganligi;

mavzuni yoritishda o'ziga xos ijodkorlik xususiyatlari ifoda etganligi.

5.3. Har bir mezon eng yuqori 5 ballgacha baholanadi. Jami 35 ball.

VI. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

6.1. Tanlovning birinchi bosqichida yuqori (1, 2, 3) o'rinni egallagan talabalar fakultet dekani tomonidan maxsus diplom va qimmatbaho sovg'alar, shuningdek, tanlovda faol ishtirok etgan talabalar universitetning faxriy yorliqlari bilan taqdirlanadi. Yuqori (1, 2, 3) o'rinni egallagan talabalarning ijodiy ishlari universitet rasmiy sayti va rasmiy ijtimoiy tarmoqlarida yoritiladi.

6.2. Tanlov bo'yicha ikkinchi bosqichda birinchi o'rin g'olibi televizor, ikkinchi o'rinni g'olibi noutbuk, uchinchi o'rinni g'olibi telefon va maxsus diplom bilan taqdirlanadi.